



DAVLAT XARIDLARIDA TENDER SAVDOSINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

Usmanova Nargiza

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat xaridlarida tender savdolarini tashkil etishning asosiy tamoyillari va usullari tahlil qilinadi. Tender savdolarining shaffof va adolatli o'tkazilishi, davlat byudjetining samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada tender savdolari jarayonining boshqaruv strukturasi, raqobat, tanlov mezonlari, shaffoflikni ta'minlash va ishtirokchilarni baholashning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, davlat xaridlarida tenderning huquqiy asoslari, xalqaro amaliyot va qonunchilik talablariga mos ravishda savdolarini o'tkazish usullari hamda tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridi, tender savdolari, raqobat, shaffoflik, tanlov mezonlari, boshqaruv, huquqiy asoslar, modernizatsiya, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Tender deganda davlat xaridini ikki bosqichda amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili orqali ijrochini aniqlash usuli tushuniladi. Bunda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tender ishtirokchisi ushbu tartib-taomil natijalari bo'yicha g'olib deb topiladi.

Davlat xaridi haqidagi axborotni davlat buyurtmachisi tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni va tender hujjatlarini maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali shaxslarning cheklanmagan doirasiga ma'lum qiladi.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Byudjet buyurtmachilari uchun tenderdagi davlat xaridlari bir shartnoma bo'yicha



bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq summani tashkil etishi kerak.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida xarid komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida etti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi, komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zinjining» respublika loyihalashtirish institutining vakillari kiritilishi shart.

Tender savdolari - dunyo amaliyotida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid etishning asosiy instrumenti sifatida qaraladi. Savdolari tashkil etishning tartibi va shartlari umumqabul qilingan xalqaro meyorlar va qoidalar bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan xarid etish jarayonlarida yaqqol nomoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tenderlar orqali tovarlar va xizmatlarni xarid etish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha meyorlari va boshqa majburiy, tavsiya etiladigan hujjatlar bilan begilab beriladi.

Tender savdosidan ko'zlangan asosiy maqsad, tovarlar va xizmatlarni past baholarda va optimal sifat ko'rsatkichlari asosida sotib olishdan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, tender savdolarida g'olibni aniqlovchi asosiy omil – nomzod taqdim etgan taklifda sifat va baho ko'rsatkichning nisbati hisoblanadi. Ammo, ushbu ikki ko'rsatkichning nisbati savdo predmetidan (tovarlar yoki xizmatlar) va ayrim olingan savdolari o'tkazishda ishlatiladigan tender hujjatlari yo'riqnomalaridan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin. Tender savdolarining, yoki o'zbek tilidagi nashrlarda uchraydigan *“tanlov” asosida tashkil etiladigan savdolarining bir-nechta turlari mavjud.*

Savdolar *ishtirokchilarga ko'ra* (ochiq, yopiq va boshqalar), *ishtirok etishga ruxsat berilishiga ko'ra* (kvalifikatsion tanlov asosida yoki ushbusiz), *geografik belgilariga ko'ra* (xalqaro, milliy, mahalliy), *tanlab olish jarayoniga ko'ra* (oddiy, soddalashtirilgan) va boshqalar. Shuningdek, savdolarining klassifikatsiyasining yana bir turi bu – uning predmetiga qarab, masalan, tovarlar etkazib berish uchun, bajariladigan ishlar va xizmatlar ko'rsatish uchun kabi turilarga bo'linadi. Mazkur klassifikatsiya quyidagilarni nazarda tutadi:

Tovarlar etkazib berish uchun savdolar –davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Savdoning predmeti bo'lib, asbob-uskunalarni ishlab chiqish, tayyorlash, etkazib berish, montaj va uni ishga



tushirish, shuningdek etkazib berilgan tovarlarni keyingi ekspluatatsiyasi bilan bog'liq qo'shimcha vazifalar, masalan, texnik xizmat ko'rsatish, remont, personalni o'qitish va sotuvdan keyingi xarajatlar. Bunda, savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va mol etkazib beruvchidan iborat.

Bajariladigan ishlar uchun savdolar – pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash hamda kerakli xizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida ob'ektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatatsiya xizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va pudratchilardan iborat.

Xizmatlar ko'rsatish uchun savdolar – texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat etish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Savdo ishtirokchilari – buyurtmachi va maslahatchilardan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, savdolar turli xil tusga ega. Sanab o'tilgan savdolar uchun, dunyo amaliyotida o'ziga xos tender va shartnoma hujjatlari mavjud bo'lib, uning tarkibi va ma'nosi, yirik xalqaro moliya tashkilotlari (Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa hamjamiyati komissiyasi, Osiyo taraqqiyot banki va hokozolar) tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar, har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, me'riy va uslubiy ko'rsatmalari bilan muvofiqlashgan.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'ttiz kun oldin va ko'pi bilan qirq besh kun oldin maxsus axborot portaliga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar z

1. Karimov, A. (2021). *Davlat xaridlarida tender savdolari va ularni tashkil etish tamoyillari*. Toshkent: "Iqtisodiy nashr" nashriyoti.
2. Shukurov, B. (2020). *Tender savdalari: qonunlar, me'yorlar va amaliyot*. Toshkent: "Moliyaviy boshqaruv" nashriyoti.
3. G'ofurov, S. (2019). *Davlat xaridlari va tender savdolarining samarali boshqaruvi*. Toshkent: "Xalqaro iqtisodiyot" nashriyoti.
4. United Nations (UN). (2020). *Public Procurement Guidelines: International Standards and Best Practices*. New York: UN Publishing.
5. OECD. (2021). *Public Procurement and Tendering Processes: Global Standards and Transparency*. Paris: OECD Publishing.
6. World Bank. (2021). *Tendering and Public Procurement in Developing Economies*. Washington, D.C.: World Bank Group.
7. IMF (Xalqaro valyuta jamg'armasi). (2020). *Public Procurement Systems and International Regulatory Standards*. Washington, D.C.: IMF Publications.